

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA DINIY ATAMALAR QIYOSIY TAHLILI

Rasulova Mubina Sherzodbek qizi

*Andijon Davlat Chet Tillari Instituti Qiyosiy tilshunoslik va
lingvistik tarjimashunoslik yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ingliz va o'zbek tillarida diniy leksik birliklarning semantik, morfologik, etimologik va madaniy xususiyatlarini tahlil qilish, ularning tarjima jarayonidagi o'ziga xosliklarini aniqlash hamda milliy-madaniy konnotatsiyalarini tadqiq etish mavzulari yoritilgan. O'rganish jarayonida ikki tilning tarixiy taraqqiyoti, diniy manbalardan kirib kelgan terminlar, ularning tarjima jarayonidagi muammolari ochib beriladi va tadqiqot natijalari ikki til o'rtasidagi diniy leksika taraqqiyotida umumiylik va milliy-kultural xususiyatlarni namoyon qiladi.*

Kalit so'zlar: *diniy atamalar, terminologiya, qiyosiy tahlil, lingvokulturologiya, semantika, tarjima.*

KIRISH

Diniy atamalar har bir tilning leksik tizimida alohida qatlamni tashkil qiladi. Ular diniy qarashlar, marosimlar, e'tiqodlar va qadriyatlarining til orqali ifodalanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ingliz tiliga diniy terminlarning katta qismi lotin, yunon va ibroniy tillaridan kirgan bo'lsa, o'zbek tili diniy terminologiyasi asosan arab va fors tillari orqali shakllangan. Shu sababli ikki tilning diniy terminlar tizimi o'rtasida umumiyliklar bilan bir qatorda sezilarli farqlar ham mavjud. Ushbu maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan asosiy diniy atamalarni qiyoslab, ularning semantik tarkibi, kelib chiqishi, qo'llanilishi hamda tarjima jarayonidagi muammolarni ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

Ingliz va O'zbek tillarida diniy atamalarning etimologiyasi

1. Ingliz tili terminologiyasining manbalari – ingliz tilidagi ko'plab diniy so'zlar quyidagi manbalardan kelib chiqqan:

☐ Lotin tili: religion, deity, sacrament, bless

☐ Yunon tili: angel, apostle, church, Bible

☐ Ibroniya tili: Amen, Messiah, Hallelujah

Bu kirishlar asosan xristianlikning Yevropa madaniyatiga tarixiy ta'siri bilan bog'liq.

2. O'zbek tili diniy terminologiyasining manbalari – o'zbek tilidagi diniy atamalar asosan:

☐ Arab tili: ibodat, duo, imon, taqvo, Jannat, Jahannam

☐ Fors tili: parhez, savob, gunoh

☐ Turkiy ildizli so'zlar: tangri, qo'ng'iroq(marosimlarda), qut

O'zbek tilida diniy leksikaning shakllanishi islom dini va Sharq madaniyatining tarixiy ta'siri bilan chambarchas bog'liq.

Semantik tahlil: Ingliz va o'zbek diniy atamalarining ma'no farqlari.

Avvalo, ikki tilning monosemantik va polisemantik xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

❑ Ingliz tilida god va God farqlanadi: biri umumiy ma'no, ikkinchisi yagona Xudoni anglatadi.

❑ O'zbek tilida xudo va Alloh so'zlari mavjud bo'lib, Alloh diniy termin sifatida yanada aniqroq va Qur'on tiliga yaqin.

Sinonimiya darajasi – o'zbek tilida diniy atamalar ko'pincha sinonim qatlamga ega:

❑ Duo – iltijo – ibodat

Ingliz tilida esa mazkur so'zlar aniq farqlanadi:

❑ Prayer (duo)

❑ Worship (ibodat)

❑ Supplication (iltijo)

Ingliz va o'zbek tillari terminologiyasining konnotativ farqlari:

1. Sin (gunoh) ingliz madaniyatida ko'proq axloqiy norma buzilishi sifatida talqin qilinadi.

2. Gunoh o'zbek-islomiy madaniyatida aqida va shariatga zid harakatni bildiradi, diniy konnotatsiyasi kuchliroq.

Diniy atamalarning funksional-stilistik xususiyatlari.

Marosim va liturgiyada qo'llanilishi – Ingliz tilida xristianlik ibodatlarida:

mass, sermon, hymn, confession

O'zbek-islomiy marosimlarda: namoz, xutba, azon, zikr

Kundalik nutqda qo'llanish. Har ikki tilga xos diniy asosli frazeologizmlar mavjud:

English: God bless you, for God's sake, in God's name

O'zbek: Xudo xoxlasa, Xudo yor bo'lsin, Allohning irodasi

Ingliz -o'zbek diniy atamalarining tarjima muammolari.

To'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydigan atamalar

Ba'zi diniy so'zlar madaniy yuklamaning kuchliligi sababli aynan tarjima qilinmaydi:

1. Trinity (uch birlik) xristianlik teologiyasiga xos termin

2. Taqvo – inglizchaga piety yoki God – consciousness tarzida izohli tarjima qilinadi

Diniy atamalarni tarjima qilishda ekvivalent yetishmovchiligi.

1. Halol – permissible yoki lawful so'zlari to'liq ekvivalent emas

2. Bless – duo qilish ma'nosida ishlatilsa-da, konnotativ jihatdan farq qiladi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillaridagi diniy atamalar quyidagi jihatlar bilan farq qiladi:

1. Etimologik qatamlari turlicha, biri Yevropa-xristian, ikkinchisi Arab-islomiy manbalarga tayangan.

2. Semantik tizimi konnotativ farqlarga ega, ayniqsa aqida terminlarida.

3. Tarjima jarayonida izohli tarjima va madaniy moslashtirish talab etiladi.

4. Har ikki tilning diniy terminlari o'z xalqining dunyoqarashi va madaniy mentalitetining aksidir.

Xulosa

Ingliz va o'zbek tillarida diniy atamalarni qiyosiy o'rganish ushbu tillarning lingvokulturologik xususiyatlarini chuqur anglash imkonini beradi.

Diniy terminlar faqat leksik birlik sifatida emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, ruhiyati va e'tiqodining til orqali ifodalanishi sifatida ham ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur tahlil tarjimashunoslik, madaniyatlararokommunikatsiya va diniy lingvistika yo'nalishlari uchun amaliy natijalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asqarov, A. (2012). O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.
2. Ashurov, Sh. & G'aniyev, O. (2018). Til va madaniyat: Lingvokulturologiya asoslari. Toshkent: Fan va Texnologiya.
3. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Finegan, E. (2015). Language: Its structure and use. Boston: Cengage Learning.
5. Haleem, M.A.S. Abdel (2016). The Qur'an: A New Translation. Oxford: Oxford University Press.
6. Sharipov, B. (2020). "Ingliz va o'zbek tillarida diniy leksikaning semantic xususiyatlari." O'zbek tili va adabiyoti, 3, 27-35.